

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT
MARKAZI**

TURSUNOV BAXTIYOR TEMUROVICH

**ALISHER NAVOIYNING KOMIL INSON KONSEPSIYASINI
YOSHLAR QALBIGA SINGDIRISHDA SENERGETIK
METODOLOGIYANING O‘RNI**

09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Tursunov Baxtiyor Temurovich

Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasini yoshlar qalbiga singdirishda
sinergetik metodologiyaning o'rni 3

Турсунов Бахтиёр Темурович

Роль синергетической методологии во внедрении концепции гармонично
развитого человека Алишера Навои в сердца молодежи.....21

Tursunov Bakhtiyor Temurovich

The role of synergetic methodology in engraining Alisher Navoi's concept of a
harmoniously developed person into the hearts of young people.....39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT
MARKAZI**

TURSUNOV BAXTIYOR TEMUROVICH

**ALISHER NAVOIYNING KOMIL INSON KONSEPSIYASINI
YOSHLAR QALBIGA SINGDIRISHDA SENERGETIK
METODOLOGIYANING O‘RNI**

09.00.01 – Ontologiya, gnoseologiya va mantiq

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/Fal375 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.samdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turayev Baxtiyor Omanovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ergasheva Mahbuba Xotambekovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Xudoyberganov Rovshanbek Xudoybergan o'g'li
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (124-raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (8366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ da tarqatildi.
(2023-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda o‘ta shiddatli va keskin tarzda kechayotgan murakkab hamda ziddiyatli globallashuv jarayoni insoniyat hayotiga ijobiy ta’sir o‘tkazish bilan birga ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-madaniy sohalarda ham bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday vaziyat inson omiliga murakkab sistema sifatida yondashib, uning mohiyatini obyektiv ravishda ochib berishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, insonning bunyodkorlik salohiyatini umumfalsafiy metodologiya hisoblangan sinergetikaning xaos va tartib, ochiqlik va yopiqlik, nochiziqlilik va chiziqlilik, beqarorlik va barqarorlik, o‘z-o‘zini tashkillashtirish, attraktor kabi muhim tamoyillaridan foydalanish orqali uning resurs va imkoniyatlarini jamiyat ravnaqini ta’minlashga yo‘naltirish talab etilmoqda.

Jahon ilm-fanida bugungi kunda turli informatsion, axloqiy va ma’naviy tahdidlar avj olib borayotganligidan kelib chiqqan holda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yuksak hurmat ruhida komil inson qilib tarbiyalashga doir tadqiqotlar ustuvorlik kasb etmoqda. Xususan, Alisher Navoiyning ilmiy-adabiy merosini metodologik o‘rganishga doir ko‘plab ilmiy faoliyat natijalari taqdim etilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro miqyosda yoshlarni ma’nan yetuk va barkamol etib tarbiyalash, shu maqsad yo‘lida Navoiy falsafiy ta’limotidagi komil inson konsepsiyasi imkoniyatlaridan foydalanish hamda uni yangicha metodologik tamoyillar orqali bugungi zamon yoshlari ongiga singdirish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda.

Mamlakatimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar yosh avlodning ideologik tarbiyasi masalasini hal etishni asosiy ijtimoiy-siyosiy vazifalardan biriga aylantirmoqda. Zero, “Zamonaviy bilimlarga ega, mamlakat kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol avlodni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning muhim shartidir”¹. Bu esa buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy ilgari surgan komil inson konsepsiyasining konstruktiv va evristik xususiyatlarini, shaxs tarbiyasiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’sirini falsafiy-sinergetik jihatlarini ochib berishni taqozo etmoqda. Mazkur funksional maqsadni ro‘yobga chiqarish uchun sinergetik metodologiya tamoyillari imkoniyatlaridan unumli foydalanish asosida mutafakkirning komil inson konsepsiyasini yoshlar ongiga chuqur singdirishga doir tadqiqotlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 июндаги “Yoshlar — kelajagimiz” Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5466-сон Фармони [Elektron resurs] // <https://lex.uz/docs/3826820> (Murojaat sanasi: 13.02.2022)

sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-son "Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to'g'risida", 2021-yil 4-fevraldagi PQ-4977-son "Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to'g'risida", 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon ilm-fanida insoniyat sivilizatsiyasining tarkibiy qismlaridan bo'lgan o'zbek milliy ma'naviy merosini, xususan, Alisher Navoiy qalamiga mansub asarlarni tadqiq etishga doir salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Shu ma'noda, ushbu tadqiqot ishi bilan bog'liq izlanishlar olib borgan olimlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruh. Ushbu guruhga bevosita Alisher Navoiyning falsafiy, adabiy, ilmiy ijodi hamda sinergetik metodologiya doirasida tadqiqotlarini amalga oshirgan xorijlik olimlarni kiritish mumkin. Dunyoda Alisher Navoiy ijodiga qiziqish katta bo'lgan. Jumladan, Christiforo Armeno¹, Arminiy Vamberi², Alfred Kurella³, Nicholas Gerard Valmsley⁴ kabi tadqiqotchilar Alisher Navoiy ijodining badiiy-ilmiy jihatlarini turli aspektlarda o'rgangan va targ'ib etgan. Venetsiyalik muallif Xristiforo Armeno 1557-yili shoirning "Sabbai sayyor" asaridan parchalarni italyan tilida⁵, mojar olimi Arminiy Vamberi 1867-yili shoir asarlaridan ayrim parchalarni nemis tilida⁶, fransuz adibi Alfred Kurella 1946-yili shoirning "Farhod va Shirin" dostonidan parchalarni fransuz tilida⁷ chop etgan. Mazkur ishlar G'arb mamlakatlari o'quvchilarining Navoiy ijodi bilan yaqindan tanishuviga xizmat qilgan. Shu bilan bir qatorda sinergetik metodologiya doirasida G.Xaken⁸, I.Prigojin¹, I.Stengers, G.Nikolis² kabi xorijlik olimlar tomonidan olib

¹ Тоджиходжаев М.М. Из истории переводов произведений Алишера Навои на европейские языки // Вестник ЧГПУ 2012/2. – С. 71-79.

² Арминий Вамбери. Путешествие по Средней Азии. – М.: Восточная литература, 2003. – С. 255-256.

³ Тоджиходжаев М.М. Из истории переводов произведений Алишера Навои на европейские языки // Вестник ЧГПУ 2012/2. – С. 71-79.

⁴ Nicholas Gerard Walmsley. O Navā'ī! imitation, innovation, and the invention of a Central Asian literary icon, 1500-1900. USA. Indiana University, 2016. – P. 345

⁵ Бертельс Е. Э. Вахидов Р. «Мажолисун нафоис»нинг таржималари. /[Текст]. Бертельс Е.Э. - Ташкент: Фан, 1984. – 189 с.

⁶ Vambéry H. Caghataische Sprachstudien. [Text]. – Leipzig, 1867.

⁷ Алишер Навои. Биобиблиография. /1917-1966/. Сост. Е.Д. Свицина. - Ташкент: Изд-во им. Г. Гуляма, 1969. – 109 с.

⁸ Хакен Г. Синергетика. 1980. - 408 с. Николс И. Пригожин. Познавание сложного. – М.: Мир, 1990, -342 с.

borilgan tadqiqotlar ham diqqatga sazovordir. Ular sinergetika qonuniyatlari, asosiy tamoyillari va shuningdek, turli fan yoʻnalishlarida sinergetik metodologiyani qoʻllanish imkoniyatlarini ochib bergan.

Ikkinchi guruh. Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi olimlari ham navoiyshunoslik sohasi rivojlanishiga katta hissa qoʻshganlar. Jumladan, V.Bartold³, A.Boldirev⁴, A.Borovkov⁵, Y.Bertels⁶, G.Xalliyeva⁷, A.Kudelin⁸, A.Binnatova⁹ kabi olimlarning tadqiqotlari Markaziy Osiyo maʼnaviy merosi, xususan, Alisher Navoiy ijodi bilan uzviy bogʻliqdir. Jumladan, V.Bartold mutafakkir yashagan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni tadqiq etish asosida shoir shaxsiyati bilan bogʻliq muhim biografik maʼlumotlarni bayon etgan. Y.E.Bertels esa, birlamchi manbalarning qiyosiy tahlili vositasida shoir ijodining oʻziga xosligi va originalligini ilmiy asoslagan. Hamdoʻstlik miqyosida sinergetik metodologiyani konstruktiv imkoniyatlarini ochib berilishida V.G.Budanov¹⁰, V.Vasilkova¹¹, Y.Knyazeva, S.Kurdyumov¹², V.Gorbatyuk¹³ kabi olimlarning ilmiy ishlarini alohida qayd etish lozim.

Uchinchi guruh. Oʻzbekistonda ham mazkur tadqiqot mavzusi doirasida salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu borada ayniqsa, O.Sharafiddinov, V.Zohidov¹⁴, L.Qayumov, B.Valixoʻjayev, M.Muhiddinov¹⁵, S.Olimov, Sh.Sirojiddinov¹⁶, B.Karimov, F.Nizomov¹⁷, U.Satimov, M.Melikova, M.Aripov,

¹ Пригожин И., Стенгерс И. Время. Хаос. Квант. К решению парадокса времени. -М.: Прогресс, 2003. - 240 с.

² Николс И. Пригожин. Познание сложного. - М.: Мир, 1990. - 342 с.

³ Бартольд В.В. Мир Али Шир // Сочинения, т. II, ч.2. - М., 1964. - С. 198-260.

⁴ Болдырев А. Н. Алишер Навои в рассказах современников. «Алишер Навои». Сборник статей. ИВ АН СССР. М. - Л., 1946. - С. 121-152.

⁵ Боровков А. Изучение жизни и творчества Алишера Навои. Сб. «Родоначальник узбекской литературы». - Т., 1940. - С.25-27.

⁶ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Том 4. Навои и Джами. -М.: Наука. - 1965. - 499 с.

⁷ Халлиева Г.И. О неизданной статье Е. Э. Бертельса по изучению творчества Алишера Навои (на основе архивных данных Института восточных рукописей РАН) / Г. И. Халлиева. — Текст: непосредственный // Проблемы и перспективы развития образования: материалы V Междунар. науч. конф. - Пермь : Меркурий, 2014. - С. 16-17.

⁸ Куделин А.В. К 575-летию со дня рождения Алишера Наваи (Итоги и перспективы изучения жизни и творчества) // Рукописи и литографированные издания произведений Алишера Наваи в Московских собраниях. Каталог. - М.: Центр книги Рудомино, 2016. - С.14-21.

⁹ Almaz Ü. Əlişir Nəvainin əsri və nəsrı (elmi-filoloji və dini - təsəvvüfi əsərləri (monoqrafiya) // Almaz Ülvı (Almaz Qasım qızı Binnətova) elmi redak- 6 torlar: akademik İsa Həbibbəyli (ön sözü müəllifi) və professor Şöhrət Sıracəddinov. - Bakı, "Elm və təhsil", 2020. - 570 səh.

¹⁰ Буданов В.Г. Методология синергетики в постклассической науке и в образовании. -М.: Издательство ЛКИ, 2008. - 240 с.

¹¹ Василькова В.В. Порядок и хаос в развитии социальных систем. Синергетика и теория социальной самоорганизации. - СПб.: Лань, 1999. - 480 с.

¹² Князева Е.Н, Курдюмов С.П. Основы синергетики. Синергетическое мировидение. - М., 2005. - 256 с.

¹³ Горбатюк В.Ф. Системы естественного интеллекта: синергетика образования: Монография. Таганрогский институт имени А.П.Чехова. - Таганрог; Ростов-на-Дону: Легион. - М., 2018. - 253 с.

¹⁴ Зоҳидов В. Ю. Улуғ шоир ижодининг қалби (Алишер Навоий ҳақида. Масъул муҳаррир Қайумов А.П). - Т.: Ўзбекистон, 1970. - 495 б.

¹⁵ Муҳиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси /"Хамса"ларнинг биринчи дostonлари асосида // Филол.фанлари доктори...дисс. -Тошкент. 1995. - 268 б.

¹⁶ Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. -Т.: Академнашр, 2011. - 326 б.

¹⁷ Низомов Ф. Алишер Навоий дунёқарашида умуминсоний қадриятлар муаммоси: Фалс. фанлари номз...дисс. -Тошкент: 1996. -146 б.

T.Norov¹, M.Pardayeva², A.Gulovalarning³ tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ushbu ishlarda Alisher Navoiy ijodining badiiy-ilmiy xususiyatlari, shoir hayoti va faoliyatiga oid tarixiy manbalar tahlili, mutafakkir asalarida ifodalangan ezgu g'oyalarning ontologik jihatlarini yoritilgan.

Shuningdek, mazkur mavzuni sinergetika tamoyillari vositasida yoritishda mamlakatimiz faylasuflari tomonidan amalga oshirilgan qator tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Bu borada O.Fayzullayev⁴, M.Abdullayeva⁵, G.G'affarova, A.Berdimuratova, B.Turayev⁶, R.Imomaliyeva, Sh.Qo'shoqov, D.Bozorov⁷, G.Sultanova, M.Ergasheva⁸, Z.Muminova⁹, I.Rizayev¹⁰ kabi olimlarning izlanishlarida sinergetikaning turli jihatlarini ochib berilgan. Xususan, Xususan, O.Fayzullayev ishlarida tizimlar tahlil etilgan bo'lsa, M.Abdullayeva va G.G'affarovaning tadqiqotlarida sinergetikaning ontologik imkoniyatlari, B.Turaevning ilmiy monografiyalarida sinergetikaning mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo'lish kabi masalalari, M.Ergashevaning izlanishlarida ta'lim tizimining sinergetik qonuniyatlari tadqiq etilgan. Mazkur ilmiy ishlar dissertatsiya mavzusini yoritishda metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda Alisher Navoiy ma'naviy merosining turli jihatlarini yoritilgan bo'lsa-da, ammo ularda mutafakkir ilgari surgan komil inson konsepsiyasining yoshlar ma'naviyati va axloqiga ijobiy ta'siri masalasi sinergetika nuqtayi nazaridan maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqot ishida Alisher Navoiy ma'naviy merosining barkamol avlod tarbiyasi bilan bog'liq jihatlarini sinergetika tamoyillari asosida atroflicha tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan istiqbolli ish rejasiga muvofiq B.01-1-son "O'zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

¹ Норов Т.О. Алишер Навоий онтологик қарашларининг фалсафий-концептуал таҳлили: Фалс. фан. док. ... дис. –Самарқанд, 2022. – 244 б.

² Пардаева М.Д. Алишер Навоий асарларида комил инсон ғояси: Фалс. фан. ном. дисс. ... автореф. –Т., 2010.

³ Гулова А.А. Алишер Навоийнинг тасаввуфий қарашларида умуминсоний қадриятлар масалалари: Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дис. –Бухоро, 2022. – 162 б.

⁴ Файзуллаев О. Фалсафа фанлари методологияси. –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006. – 123 б.

⁵ Абдуллаева М.Н., Гаффарова Г.Г. Илмий контекстда фанлараро ёндашув // НамДУ илмий ахборотномаси. –Наманган, 2019. – №1. –Б. 97-103.

⁶ Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. (Масъул муҳаррир: проф. Каримов Б.Р.). Монография. (Авт.: Тураев Б.О. ва бошқалар) –Т.: Наврўз, 2017. – 360 б.; – Синергетика-2: назария ва амалиёт. (Масъул муҳаррир: проф. Тураев Б.О.). Монография. (Авт.: Тураев Б.О. ва бошқалар) –Т.: Fan ziyosi, 2022. – 404 б.

⁷ Бозаров Д.М. Синергетик парадигма. –Тошкент.: Тафаккур, 2010. –152 б.

⁸ Эргашева М.Х. Таълимнинг синергетик қонуниятлари: назарий методологик таҳлил: Фалс. фан. док. ... дисс. ... автореф. –Самарқанд, 2022. –79 б.

⁹ Муминова З. Маънавий борлиқнинг синергетик таҳлили. – Самарқанд, Зарафшон, 2016. –204 б.

¹⁰ Ризаев И.И. Ижтимоий тизимнинг ўз-ўзини ташкиллаштириш механизмлари. Фалс. фан. бўй. фалс. док. (PhD) ... дис. – Самарқанд, 2021. – 42 б.

Tadqiqotning maqsadi sinergetik metodologiya imkoniyatlariga tayangan holda Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasining ontologik va gnoseologik mohiyatini ochib berish hamda uni yoshlar qalbiga singdirishning ustuvor jihatlarini falsafiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasiga sinergetik yondashuvning metodologik tahlilini amalga oshirish orqali uning barkamol avlodni tarbiyalashdagi ustuvor jihatlarini ko'rsatib berish;

Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan komil inson konsepsiyasining ontologik va gnoseologik mohiyatini sinergetik talqin etish;

Alisher Navoiy ma'naviy merosida sinergetikaning o'z-o'zini tashkillashtirish tamoyilining namoyon bo'lishi va barkamol avlodni tarbiyalashda bifurkatsiya hodisasi va attraktor omillarining ahamiyatini falsafiy asoslash;

jamiyat taraqqiyotining sinergetik xususiyatlarini falsafiy tahlil qilish orqali Alisher Navoiy ma'naviy merosini bilishning yoshlar tarbiyasiga konstruktiv ta'sirini dalillashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Alisher Navoiy ma'naviy merosi tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini Alisher Navoiy ma'naviy merosining ontologik va gnoseologik jihatlarini sinergetik metodologiya asosida tadqiq etish tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy bilishning tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, taqqoslash, umumlashtirish, sinergetik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiy komil inson konsepsiyasining ontologik va gnoseologik mohiyatida namoyon bo'luvchi gumanizm g'oyalarini yoshlar axloqiy tarbiyasida dominant omil ekanligi sinergetikaning noxiziqli yondashuv tamoyili vositasida asoslangan;

Alisher Navoiyning komil insonni tarbiyalashga oid g'oyalarida "o'z-o'zini tashkillashtirish", "kelajakning bugunga ta'siri", "bifurkatsiya", "fluktuatsiya" kabi sinergetik tamoyillarning namoyon bo'lishi aniqlangan;

Alisher Navoiy asarlarida yoritilgan komil inson g'oyasining bunyodkorlik xususiyatlari attraktor sifatida ijtimoiy tizimda yangi sifat va xossalarni vujudga keltiruvchi ontologik omil bo'lib kelishi isbotlangan;

globallashtirish sharoitida yuz berayotgan axloqiy degradatsiya oqibatlarini bartaraf etishda Alisher Navoiy ma'naviy merosining sistema yaratuvchanlik tabiati ijtimoiy-regulyativ ta'sirga egaligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasiga oid diniy hamda dunyoviy ilmlar uyg'unligi sinergetik tamoyillar vositasida tahlil qilingan va ma'naviy merosni o'rganishda sinergetik metodologiyaning ustuvorlik jihatlari ochib berilgan;

Alisher Navoiy asarlarining barkamol avlodni tarbiyalashga oid ontologik va gnoseologik manba ekanligi sinergetika qonuniyatlari vositasida isbotlangan;

ma'naviy merosni o'rganishga doir tadqiqotlarni amalga oshirishda Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi mohiyatiga oid xulosalardan foydalanilgan;

yoshlar orasida axloqiy inqirozning oldini olishda Alisher Navoiy ilgari surgan komil inson konsepsiyasidan foydalanish bo'yicha amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi milliy va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan O'zbekistonda Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi mohiyatini tizimli tadqiq etish, ushbu murakkab sistemani noxiziqli tafakkur yordamida chuqur anglash bilan bog'liq ilmiy-nazariy xulosalar kelgusida amalga oshiriladigan izlanishlarda metodologik asos bo'lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shaxs ma'naviy kamoloti bilan shug'ullanuvchi institutlar, oila, mahalla va ta'lim muassasalari bilan faol hamkorlik qilish va ular faoliyatiga amaliy yordam ko'rsatishda, shuningdek, mavzu doirasida darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasini yoshlar qalbiga singdirishda sinergetik metodologiyaning o'rnini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasini yoshlar qalbiga singdirishda sinergetik metodologiyaning o'rnini aniqlash masalalarini tadqiq etish asosida: Alisher Navoiy komil inson konsepsiyasining ontologik va gnoseologik mohiyatida namoyon bo'luvchi gumanizm g'oyalarini yoshlar axloqiy tarbiyasida dominant omil ekanligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan chop etilgan "O'rta asr Sharq allomalari" ensiklopediyasi, "Ma'naviyat: Asosiy tushunchalar" izohli lug'atini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2022-yil 24-noyabrdagi 02-03/8963-son ma'lumotnomasi). Natijada barkamol avlod tarbiyasiga oid nazariy xulosalar, amaliy taklif hamda metodologik tavsiyalar diniy o'rta maxsus bilim yurtlari, oliy ta'lim muassasalari va shuningdek, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini yana-da takomillashtirishga xizmat qilgan;

Alisher Navoiyning komil insonni tarbiyalashga oid g'oyalarida "o'zini-o'zi tashkillashtirish", "kelajakning bugunga ta'siri", "bifurkatsiya va fluktuatsiya" kabi sinergetik tamoyillarning namoyon bo'lishiga doir ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan nashr etilgan "Uchinchi Renessans – Yangi O'zbekiston" fotoalbumini tayyorlashda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyuldagi PQ-5186-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yana-da takomillashtirishga doir qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Jahon ilm-fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan ajdodlar ilmiy merosini tadqiq qilish hamda yangi yuksalish davridagi yutuqlarni targ'ib qilish" bo'yicha "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining 2022-yil 24-oktyabrdagi 783-son ma'lumotnomasi). Natijada Alisher Navoiy ma'naviy merosida ilgari surilgan komil inson konsepsiyasi mohiyatining falsafiy-sinergetik tadqiqiga doir yangi nazariy bilimlarning ortishiga xizmat qilgan;

Alisher Navoiy asarlarida yoritilgan komil inson g'oyasining bunyodkorlik xususiyatlari attraktor sifatida ijtimoiy tizimda yangi sifat va xossalarni vujudga keltiruvchi ontologik omil ekanligi hamda globallashuv sharoitida yuz berayotgan axloqiy degradatsiya oqibatlarini bartaraf etishda Alisher Navoiy ma'naviy merosining sistema yaratuvchanlik tabiati ijtimoiy-regulyativ ta'sirga egaligiga oid xulosa va takliflardan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston tarixi" telekanali "Taqdimot" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali" DUKning 2022-yil 7-noyabrdagi 02-30-1858-son ma'lumotnomasi). Natijada Alisher Navoiy ma'naviy merosining mohiyati keng jamoatchilikka etkazilib, uning konstruktiv jihatlari yoshlarni milliy-ma'naviy qadriyatlarga yuksak hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiyaning ilmiy natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (4 ta mahalliy va 1 ta xorijiy jurnalda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan. Shuningdek, tadqiqot davomida olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, mavzuning o'rganilganlik darajasi, tadqiqot usullari yoritilgan. Bundan tashqari, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Alisher Navoiy ma'naviy merosida komil inson konsepsiyasiga sinergetik yondashuvning metodologik tahlili**" deb

nomlangan. Mazkur bobda komil inson konsepsiyasining rivojlanish evolutsiyasi va uning Alisher Navoiy ma'naviy merosida ifodalanish xususiyatlari, nazariy manbalari, metodologik asoslari tahlil etilgan. Bobning birinchi paragrafi "*Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi tadqiqiga sinergetik yondashuvni tatbiq etishning ustuvor jihatlari*" deb nomlanib, unda Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasini nochiziqli tahlil etish asosida ma'naviy merosga sinergetik metodologiyani tatbiq etishning ustuvor jihatlari ochib berilgan.

Sharq falsafiy ta'limotlarida komil insonni tarbiyalashga doir turli qarashlar ilgari surilgan. "Komil inson" ("insoni komil") atamasini dastlab ilk mutasavviflar Boyazid Bistomiy (vafoti 874) va al-Qushayri (XI asr) tariqatning oliy darajasi – haqiqatga erishgan inson axloqi darajasini belgilashda qo'llagan¹. Shuningdek, komil inson masalasiga so'fiylardan Mansur Xalloy (858-922), keyinchalik esa Muhyiddin ibn al-Arabi o'zining (1165-1240) "Fususul-hikam" va Abdulkarim Geloniy (1077-1166) "Insoni komil" asarlarida keng e'tibor qaratgan².

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyatda samarali ta'sir ko'rsatgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) o'z asarlarida komil inson to'g'risida yaxlit ta'limot yaratgan. Komil inson martabasi sari yuksalish mashaqqatli zahmatni talab etadi. Ammo mutafakkir har qanday murakkablikni ilm-ma'rifat vositasida oson hal qilish yo'llarini ko'rsatib beradi. Buning uchun, avvalo, inson nafsini (mutafakkir "nafs" deganda juda keng tushunchalarni nazarda tutadi) o'ziga bo'ysundirib, tabiatidagi nuqsonlarni bartaraf etishga kirishmog'i kerakligini qat'iy ta'kidlagan.

Buyuk shoir nazdida Muhammad (s.a.v.) payg'ambar³, piri ustozlari Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardasherlar komil insonlar bo'lib, ular butun umr xalq g'amida yashab, boshqalarga mehr-muruvvat ulashgan. Ular poklanish va Haq yo'lini ixtiyor qilgan kishilardir. Shuningdek, shoir o'zining komil inson idealini Suqrot, Aflotun, Arastu, Iskandar Zulqarnayn kabi tarixiy shaxslar hamda Farhod va Shirin, Layli va Majnun kabi badiiy qahramonlar obrazlarida mujassam etgan.

Alisher Navoiy dunyoviy va diniy bilimlarni puxta egallagan, jisman va ma'nan sog'lom, biron bir foydali kasb-hunarning yetuk mutaxassisi, yuksak axloqiy fazilatlar sohibi bo'lgan, xalqi va Vataniga sodiq xizmat qilayotgan olijanob kishini komil inson deb ataydi. Mazkur tamoyillarni mutafakkir tomonidan ilgari surilgan komil inson konsepsiyasining tarkibiy qismlari deb atash mumkin. Uning o'ziga xos jihatlari sinergetik nochiziqli yondashuv vositasida tadqiq etilishi ontologik va gnoseologik mohiyatiga singdirilgan gumanizm g'oyalarini yoshlar axloqiy tarbiyasida dominant omil ekanini ko'rsatadi.

Usbu bobning ikkinchi paragrafi "*Alisher Navoiy ma'naviy merosida sinergetik tamoyillar: tasodifning konstruktivligi va kelajakning bugunga ta'siri*" deb nomlangan. Unda Alisher Navoiy hayoti va ijodida sinergetik metodologiyaning tasodif va "kelajakning bugunga ta'siri" sinergetik

¹Mehmet S. Aydin. *Insan-i kamil* // *Islam ansiklopedisi*. Cilt-22. Ankara: 2018. S.350.

²Хайитов Ш.А. Алишер Навоий насрида комилинсон образи (улуг'шоир манокиблари асосида): Филол. фан. док. дис. ... Автореф. – Фарғона, 2020. –Б.14.

³Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб. Мукаммал асарлар тўплами (МАТ). 20 томлик. 14 т. –Т.: Фан, 1998. –Б. 3.

tamoyillarning o'zni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, sinergetikada xaos va tasodifga ijobiy hodisa sifatida qaralishining ontologik va epistemologik jihatlarini tahlil etilgan.

Sinergetikaning tasodifdagi zaruriyat qonuniyati Alisher Navoiy ijodida o'zini namoyon etgan. Jumladan, yosh Alisherning Fariduddin Attor qalamiga mansub "Mantiqut-tayr" dostoni bilan tasodifiy tanishuvi kelajakda shu singari jiddiy ijtimoiy-falsafiy asar yaratishni uning ko'ngliga solib, "Lisonut-tayr" dostonining yaratilishini shoir uchun zaruriyatga aylantiradi.

Yosh Alisher Mavlono Lutfiy bilan tasodifiy ravishda ro'y bergan uchrashuvi chog'ida quyidagi matlali g'azalini o'qib beradi:

Orazin yopqach, ko'zumdin sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.

Keksa shoir she'rni yuqori baholab, unga butun badiiy bisotini alishish istagini bildiradi¹. Ushbu yuksak rag'bat yosh shoirni ijodiy kamolot sari yo'naltirgan o'ziga xos attraktor sifatida kelgusida o'ta noyob badiiy asarlar yaratilishiga yo'l ochgan. Buyuk shoir, mutafakkir va mahoratli davlat arbobining yetishib chiqishida hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qilgan.

Navoiyning qayd etishicha, inson hayotida ro'y beradigan barcha zaruriyat taqdir hukmi bilan, ya'ni Allohning irodasi bilan bo'ladi². Ammo shoir asarlarida bayon etilgan pand-u nasihatlaridan ma'lum bo'ladiki, kishi o'zini ma'nan takomillashtirish imkoniga ham egadir.

Mutafakkir xulosalariga ko'ra, inson ma'naviy kamolotga aql-tafakkur vositasida o'zlikni anglash, ezgu fazilatlarni o'zlashtirish orqali erishadi. Mazkur jarayon mantiqiy va xronologik ketma-ketlikda davom etib, o'z sohibini kamolga yetkazadi. Demak, bundan komillikni maqsad qilgan inson, kelajakda kutilayotgan natija uchun harakatga hoziroq kirishmog'i lozimligi anglanadi.

Shoirning axloq-odobga oid hikmatlarida, "Farhod va Shirin" dostonida ifodalangan "Temir odam" (robot), "Iskandar oynasi" (televizor), "Saddi Iskandariy" dostonidagi dengiz tubini tadqiq etish maqsadida yaratilgan maxsus oynali qurilma (batisfera – batiskaf) haqidagi g'oyalarida "kelajakning bugunga ta'siri" sinergetik tamoyili aks etgan.

Dissertatsiyaning **"Alisher Navoiy ma'naviy merosida komil inson konsepsiyasining o'zni va uning sinergetik talqini"** deb nomlangan. Uch paragrafdan iborat ushbu bobda Alisher Navoiy ma'naviy merosida ilgari surilgan komil inson kontsepsiyasining ontologik va gnoseologik mohiyati o'z-o'zini tashkillashtirish, bifurkatsiya, fluktuatsiya, attraktor omili kabi sinergetik tamoyillar vositasida falsafiy talqin qilingan.

Bobning *"Mahbub ul-qulub"* asaridagi *umuminsoniy qadriyatlar bayoni va ularning sinergetik talqini* nomli paragrafida pandnomada keltirilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ontologik va gnoseologik xususiyatlari sinergetik tahlil asosida ochib berilgan. Mutafakkir insonni komillik sari yo'naltiruvchi

¹ Хондамир Ф. Макорим ул-ахлоқ. –Т.: Akademnashr, 2018. –Б. 88-89.

² Навоий А. Садди Искандарий (насрий баёни). –Т., 1991. –Б. 625.

omillarni chuqur tahlil qilib, kishi o'zini hirs, tama, johillik kabi illatlardan poklamas ekan, hech qachon komil inson bo'la olmasligini ma'lum qiladi.

Mutafakkir "Mahbub ul-qulub" asarida yomonlik va yovuzlikni tartibsizlik keltirib chiqaruvchi hamda yaxshilik va ezgulikni tartib o'rnatuvchi sinergetik omil sifatida talqin qiladi. Shuningdek, salbiy xislatlarning yomonligini bo'rttirib ko'rsatib, ulardan kuchli ta'sirga ega bo'lgan tartib yasovchi sifatida foydalanadi. Shoir talqinida insonning komillik darajasi uning o'zgalarga qilayotgan yaxshiligi, ko'maging ko'lami bilan belgilanadi.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi "*Alisher Navoiyning komil inson ta'limotida o'zini-o'zi tashkillashtirish haqidagi sinergetik tamoyil va uning ifodalanish xususiyatlari*" deb nomlanadi. Unda shoir tomonidan ilgari surilgan o'z-o'zini tashkillashtirishning tavba, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze, odob, ishq, vafo kabi tarkibiy elementlarining mohiyati sinergetika nuqtayi nazaridan tahlil etiladi.

Alisher Navoiy nazdida komillikning mohiyatini odamiylik konsepsiyasi tashkil etadi. Insonni eng oliy qadriyat, materiyaning eng takomillashgan va murakkab shakli sifatida e'tirof etib, uni el tashvishi bilan yashashga chaqiradi:

*Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami*¹.

Insonlar borki, har birining o'ziga yarasha tashvish-u muammolari mavjud. Mutafakkir chinakam (komil) inson xalq g'ami bilan yashashi kerakligini aytib, kishini muttasil ravishda o'z-o'zini tashkillashtirishga chorlaydi. Buyuk shoir dunyoda insonlarning muammolari haqida qayg'urib yashash insoniylikning oliy namunasi ekanini qat'iy ta'kidlaydi². Inson o'zlikni va Yaratganni anglab, yaxshi xulq va fazilatlarini o'zlashtirishi, xayrli amallar qilib, halol mehnat ortidan kun kechirishi lozim. Chunki insonning bilimi, tarbiyasi, tafakkuri, irodasi, hissiyotlari, ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari o'zini-o'zi tashkillashtirishning ichki motivlari sifatida ongli va maqsadga yo'naltirilgan ijodiy faoliyatni yuzaga keltiradi.

Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan basharni sharafllovchi jamiki fazilatlarini komil inson konsepsiyasining ustuvor jihatlari sifatida o'z-o'zini tashkillashtirish omillari deyish mumkin. Shoir imon, qanoat, saxovat, ilm-ma'rifat, vafo, himmat, xokisorlik, adolat, adab kabi sifatlarni o'z asarlarida turli voqealar bayonida qayta-qayta ta'kidlab o'tadi³.

Darhaqiqat, "Navoiy asarlaridan bahra olish, ta'sirlanish, ruhiy oziqlanish va shu orqali o'z-o'zini tarbiyalash shoir yaratgan adabiy siymolardan ibrat olish demakdir"⁴. Shunday ekan, komillik kishiga hayotda duch kelgan narsalarning barchasini o'rganishga intilish, o'zini jisman va ma'nan takomillashtirish ko'rinishida namoyon bo'luvchi ontologik va gnoseologik mohiyat kasb etadi.

Bu esa, mutafakkir asarlarida ilgari surilgan insonparvarlik g'oyalarining hayotbaxshligi, hikmatlarining ko'p asrlar davomida bashariyatni kamolotga

¹ Навоий А. Ҳайратул аброр. МАТ: 20 томлик. 7 т. –Т.: Фан, 1991. –Б. 256.

² Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –Б.18.

³ Навоий А. Ҳамса: Ҳайратул аброр. МАТ: 20 томлик. 7 т. –Т.: Фан, 1991. –Б. 103.

⁴ Аъзам А. Муножотнома (Алишер Навоийнинг "Муножот" асарига шарҳ.) –Т.: Мовароуннаҳр, 2018. –Б.29.

yo'naltirib kelayotgan noyob nochiziqli tafakkur mahsuli sifatida qimmatli ekanligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiyning axloq-odobga oid hikmatlarida, "Farhod va Shirin" dostonida ifodalangan "Temir odam" (robot), "Iskandar oynasi" (televizor), "Saddi Iskandariy" dostonidagi dengiz tubini tadqiq etish maqsadida yaratilgan maxsus oynali qurilma (batisfera – batiskaf) haqidagi g'oyalarida "kelajakning bugunga ta'siri" sinergetik tamoyili aks etgan. Mazkur jihatlar shoirida to'g'ri ilmiy bashorat qilish qobiliyati yuksak bo'lganligidan guvohlik beradi.

Ikkinchi bobning *"Komil insonni tarbiyalashda bifurkatsiya hodisasi va attraktor omiliga tayanish qonuniyati"* deb nomlangan paragrafida komil insonni tarbiyalashda bifurkatsiya hodisasi va attraktor omilining o'zaro aloqadorligini mantiqiy asoslashga e'tibor qaratilgan. Ochiq va beqaror tizim hisoblangan inson Alisher Navoiy o'g'itlari asosida o'ziga tanqidiy qarab, to'g'ri xulosalar chiqaradi. Bunday beqarorlik holati bifurkatsiya jarayoni va undagi megadaraja vazifasini bajaruvchi boshqaruv parametri esa bifurkatsiya nuqtasi deb ataladi. Bifurkatsiya nuqtalari bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Bifurkatsiya nuqtalari yangi sifat paydo bo'layotgan har qanday jarayon uchun xos bo'lib, axborot orqali tizim xulq-atvoriga ta'sir o'tkazadi¹.

Alisher Navoiy asarlarida, xususan, "Mahbub ul-qulub"dagi insonni kamolotga yo'naltiruvchi ezgu g'oyalarni bifurkatsiya nuqtalari deb atash mumkin. Chunki mutafakkir kishi fe'l-atvoriga xos sifatlar mohiyatini ochib berar ekan, ularning aniq darajalarini, qat'iy chegara va me'yorlari bo'lgan bifurkatsiya nuqtalarini aniq ko'rsatgan holda tavsiflaydi.

Shoir saxovat va himmatni ulug'lash asnosida ehsonni muhtoj kishilarga qilish kerakligini aytib, aks holda bu o'rinsiz sovurish, isrof ekanini ma'lum qiladi. Shuningdek, maqtanish uchun mol bermoqlik – o'zini ko'z-ko'z qilmoq ekanini, tilagandan so'ng berishning saxovat emasligini, qistov natijasida bergandan bermagan yaxshiroqligini aytib², odamiylik darajalarini aniq ifodalash orqali o'zini buyuk attraktor sifatida namoyon etadi.

Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi shu davrning mahsuli sifatida jamiyat a'zolarini tarbiyalashga, ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan. Shoir ma'naviy qashshoqlikni kamaytirish hamda ezgu kuchlar miqyosini kengaytirish orqali ijtimoiy zulmni "tiyib qo'yish" yo'llarini qidiradi. Chunki, ezgulikni yoyish bir tomondan jaholatga qarshi kurashish bo'lsa, boshqa tomondan yovuzlikning faoliyat doirasini cheklay borishdir. Kishi ma'naviy yuksala borgani sari u oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratishni, ya'ni tamiz tuyg'usini kasb etadi. Qora kuchlar esa, odatda, o'z hayotini boshqalarning omiligi, johilligi ustiga quradi. Mutafakkir ushbu murakkab jarayonni yaxshi idrok etgan holda, fazilatlarini qaror toptirish hamda illatlarga qarshi kurash vositalariga bir xilda ahamiyat bergan.

Alisher Navoiy "Ey Tangrim, o'zimning yomonligim o'zimga ma'lum, ammo uni o'zim tuzata olmayman. Balki yaxshilarga ergashsam, tuzalardim, ammo

¹ Буданов В.Г. Методология синергетики в постклассической науке и в образовании. – М.: Издательство ЛКИ, 2008. С. 59-60.

² Навоий А. Махбуб ул-кулуб. МАТ. 20 томлик. 14 т. –Т.: Фан, 1998. –Б. 78-79.

yomonligimdan yaxshilar etagini tutishga uyaladigan bedavoman”¹, deydi. Mutafakkir kishi tabiatidagi salbiy illatlardan shunchaki o‘z-o‘zidan forig‘ bo‘la olmasligiga, bunda yaxshi insonlarning ko‘magi – tartib yasovchi attraktor zarurligini qayd etadi. Navoiy asarlari, saxovatli ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda ibratli hayot tarzi bilan kishilarni ma‘naviy yuksaklikka da‘vat etib kelayotgan buyuk attraktordir.

Komil insonni tarbiyalash masalsi Alisher Navoiy ma‘naviy merosining, xususan, “Mahbub ul-qulub” asarining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Mutafakkir insonni murakkab mavjudot sifatida tahlil qilib, uni takomilga olib chiquvchi tavba, ilm, axloq-odob, shukr, qanoat, adolat, saxovat kabi ezgu qadriyatlar mohiyatini o‘rganishga nochiziqli yondashib, ularni diniy-falsafiy mazmunda ochib bergan.

Alisher Navoiy asarlarida ilgari surilgan teran ezgu g‘oyalar tartib parametrlari sifatida ijtimoiy tizimda fluktutsiya va bifurkatsiya jarayonlarini sodir etib, uni o‘z-o‘zini tashkillashtirish vositasida takomilga yo‘naltirib kelayotgan buyuk kuch – attraktordir.

Mutafakkir asarlarida ifodalangan komil inson g‘oyasining insonparvarlik, bag‘rikenglik kabi bunyodkorlik xususiyatlari attraktor sifatida ijtimoiy tizimda yangi sifat va xossalarni vujudga keltiruvchi muhim ontologik omil bo‘lib xizmat qiladi.

